

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**



AKADEMIK QOIDALAR

2023-2024-o'quv yili uchun



Mundarija

Atamalar va ta’riflar	3
I. Universitet haqida qisqa ma’lumot	6
1.1. Dekanat	6
1.2. Kafedra	7
II. Universitetda ta’lim darajalari	8
2.1. Bakalavr darajasini olishga qo‘yiladigan talablar	9
2.1.1. Talabalikka qabul	9
III. O‘quv jarayoni	11
3.1. Dars jadvali	11
3.2. HEMIS	11
3.3. Kredit-modul tizimi	11
3.4. O‘quv yili	11
3.5. Semestr	11
3.6. Fan	11
3.7. Talabalar o‘quv yuklamasi	12
3.8. Kredit	12
3.9. Kredit qanday to‘planadi?	13
3.10. Talaba qachon qarzdor hisoblanadi?	13
3.11. Qarzdorlik qanday bartaraf etiladi?	13
3.12. Talaba qachon kursdan kursga qoldiriladi?	14
3.13. GPA nima?	14
3.14. Talabalar bilimini baholash	15
3.15. Mustaqil ta’lim	16
3.16. Stipendiya	16
3.17. Ta’tillar	16
3.18. Malakaviy amaliyotlar	17
3.19. Talabalar o‘qishini ko‘chirish va qayta tiklash	17
3.20. Talabalarga akademik ta’til berish	17
3.21. Akademik mobillik	17
3.22. Akademik halollik	17

ATAMALAR VA TA'RIFLAR

- Akademik yil** – qarang **O'quv yili**
- Auditoriya soati** – O'quv mashg'ulotlari (ma'ruza, seminar, amaliy, laboratoriya) uchun belgilangan soat.
- Bakalavriat** – Oliy ta'lif yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan, bilim, ko'nikma va malakalar beradigan, davomiyligi kamida 3 yil bo'lgan tayanch oliy ta'lif.
- Bitiruv oldi amaliyoti** – Tegishli soha korxonasi, tashkilot va muassasalarida kasbiy ko'nikmalarni mustahkamlash, kasbiy faoliyatga moslashish, bitiruv malakaviy ishini tayyorlash uchun ma'lumot toplash va tizimlashtirishga qaratilgan amaliyot turi.
- Dekanat** – Oliy ta'lif muassasasida fakultetni boshqaradigan ma'muriy-ilmiy bo'linma.
- ECTS** – *The European Credit Transfer and Accumulation System* (Evropa Kredit Almashish va Yig'ish Tizimi) – ta'lif dasturi yoki kursni o'zlashtirishda talabaning o'quv ishlarini hisobga olish umumevropa tizimi. Bu tizim talabaga qaratilgan bo'lib, o'qish dasturi maqsadlariga erishish uchun belgilangan o'quv yuklamasini bajarish lozim bo'ladi. O'qish dasturi maqsadlari *o'qish natijalari* va *qo'lga kiritilgan malaka (kompetemsiya)lar* bilan aniqlanadi. Bu tizim (ECTS) O'zbekiston Respublikasida 2020-yil 31-dekabrda Vazirlar Mahkamasining 824-sonli qarori bilan oliy ta'lif muassasalarida tatbiq etish uchun qabul qilingan.
- Fan katalogi** – fan katalogi universitet, undagi resurslar, ta'lif xizmatlari, ta'lif dasturlari va boshqalar haqida to'liq, qulay va dolzarb ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan axborot manbai bo'lib, talabaga universitetda o'qishi davomida ko'mak beruvchi va talaba tomonidan ta'lif trayektoriyasini to'g'ri tanlashi uchun zarur hamda foydali manba hisoblanadi.
- GPA bali** – Grade Point Average – talaba o'zlashtirgan ballari o'rtacha qiymati, VMQ 824 (31.12.2020)ga ko'ra quyidagicha hisoblanadi:
$$GPA = \frac{K_1 * U_1 + K_2 * U_2 + K_3 * U_3 + \dots + K_n * U_n}{K_1 + K_2 + K_3 + \dots + K_n}$$

Bunda K – har bir fan yoki modulga ajratilgan kredit miqdori
U – har bir fan yoki modul bo'yicha to'plangan baho

HEMIS – HEMIS - *Higher Education Management Information System* - Oliy ta'lifni boshqarish axborot tizimi, elektronlashtirilgan o'quv jarayoni tizimi.

Kredit – Talabaning o'qish bilan bog'liq ish hajmi o'lchov birligi. Bu birlik o'quv ishlarining barcha turlarini o'z ichiga qamrab oladi. Universitetda 1 kredit 30 soatga teng deb qabul qilingan. Kreditlar o'quv dasturining nazariy va amaliy qismlari (auditoriya mashg'ulotlari, mustaqil ish, amaliyot, kurs ishi va boshq)ning barchasi uchun beriladi.

Kredit-modul tizimi – Kredit-modul tizimi – talaba o'quv yuklamasining o'lchov birligi hisoblangan ECTS kreditlari va ta'lifning modulli texnologiyasiga asoslangan o'quv jarayonini tashkil etish modeli bo'lib, unda ma'lum bilim, ko'nikma va malakalar qismlarga bo'lib yoki butunlay o'zlashtirilishs zarur bo'ladi.

Kurs – 1. Bir o'quv yili kurs deb ataladi. Masalan, 2023/2024-o'quv yilda o'qishga qabul qilingan talaba 1-kurs, 2024/2025-o'quv yilda ushbu talaba 2-kurs, 2025/2026-o'quv yilda 3-kurs va h.k.
2. Kredit-modul tizimida kurs tushunchasi ma'lum bir fanni nazarda tutadi.

- Kurs ishi**
- O‘quv rejasidagi umumkasbiy va maxsus fanlar bo‘yicha bajariladigan mustaqil ish.
- Kurs katalogi**
- Magistratura**
- qarang **Fan katalogi**.
 - Tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo‘yicha davomiyligi kamida 1 yil bo‘lgan oliy ta’lim.
 - Magist darajasini beruvchi, o‘quv reja va fan dasturlari asosida kasb faoliyatini muayyan turini bajarishni ta’minlovchi bilim, uquv va ko‘nikmalar kompleksi. Mutaxassislik 7-ta’lim darajasi bo‘lib, u 8 ta raqamli kod va nomga ega, masalan, 70111401 O‘zbek tili va adabiyoti.
 - Talabaning asosiy mutaxassisligi bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malaka beradigan fan. Bu fanni talaba o‘zlashtirishi shart.
 - Oliy ta’lim tegishli bosqich (bakalavriat yoki magistratura) bitiruvchisining bilim, ko‘nikma va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.
 - Talabaning kasbiy tayyorgarligi, amaliy ko‘nikmalari va kompetensiyalarini shakllantiruvchi ta’lim jarayonining majburiy qismi. Malakaviy amaliyot quyidagi turlarga bo‘linadi: o‘quv (tanishuv) amaliyoti, ishlab chiqarish amaliyoti, bitiruv oldi amaliyoti, pedagogik amaliyot va boshqalar.
 - Modul - ta’lim dasturi, o‘quv kursi yoki fanning bir qismi bo‘lib, bir yoki bir nechta kompetensiyalarni shakllantiradi va yakunida bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarga egaligi attestatsiya (imtihon) orqali aniqlanadi.
- MOODLE**
- MOODLE - *Modular Object-Oriented Dynamic Learning Environment* - obyektga yo‘naltirilgan modulli dinamik o‘qitish muhiti, kurs(fan)larni boshqarish yoki masofaviy ta’lim platformasi.
 - Mustaqil ish – o‘qituvchining topshirig‘i va rahbarligida o‘quv vazifasini hal etadigan ta’limning faol metodi.
 - Mustaqil ta’lim - o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo‘lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriya hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan faoliyat.
 - Talabalar bilimini nazorat qilish va baholash yo‘li. Nazoratning quyidagi turlari bor: joriy, oraliq va yakuniy.
 - Egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar (kompetensiyalar)
 - Umumkasbiy fanlar bo‘yicha auditoriyada olingan nazariy bilimlarni korxona, muassasa va tashkilotda amaliy jihatdan mustahkamlash uchun tashkil etiladigan amaliyot turi.
 - O‘quv dasturi (O‘D) – me’yoriy hujjat bo‘lib, o‘quv fanini o‘qitish, o‘qish tartibi, mazmuni, hajmi, o‘zlashtirish natijalari, nazoratlar va baholash mezonlarini belgilaydi.
 - O‘quv rejada belgilangan fanlar majmuasi. O‘quv rejada 2 ta blok bor: majburiy fanlar va tanlov fanlar bloki.
 - Ma’ruza, seminar, amaliy, laboratoriya, nazorat ishi, kollokvium, mustaqil ish, ilmiy-tadqiqot ishi, malakaviy amaliyot, kurs ishi (loyihasi) shaklida olib boriladigan mashg‘ulotlar. Universitet tomonidan o‘quv mashg‘ulotlarining boshqa turlari ham joriy qilinishi mumkin.
 - O‘quv faoliyati turlari, o‘quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o‘rganishning izchilligi, soatlar va kreditlardagi hajmini ta’lim davrining to‘liq muddati uchun belgilaydigan hujjat.
 - o‘quv yilini yarminи tashkil etuvchi va yakuniy nazorat bilan tugaydigan qismi. Bunda ma’lum fanlarni o‘zlashtirish talab etiladi, fanlarni
- Modul**
- Mustaqil ish**
- Mustaqil ta’lim**
- Nazorat**
- O‘qish natijalari**
- O‘quv amaliyoti**
- O‘quv dasturi**
- O‘quv fanlari bloki**
- O‘quv mashg‘ulotlari**
- O‘quv reja**
- O‘quv semestri**

	<p>o‘zlashtirgan va ijobiy baholanib yetarli kredit hamda GPA balini qo‘lga kiritgan talaba keyingi semestrga o‘tkaziladi.</p>
O‘quv yili	<ul style="list-style-type: none"> - Bir ta’lim kursini yakunlashga mo‘ljallangan o‘quv faoliyati davri. O‘quv yilining boshlanishi bir kalendar yilining 9-oyiga va tugashi esa 2-kalendar yilining 6- (ba’zan 7-)oyida tugashi sababli 2 ta kalendar yili bilan belgilanadi. Masalan, 2023/2024-o‘quv yili va h.k.
O‘quv yuklama	<ul style="list-style-type: none"> - Rejallashtirilgan o‘quv faoliyatining barcha turlari, shu jumladan, auditoriya va mustaqil ta’lim (ish)ni bajarish uchun ajratilgan vaqt, soatlar hajmi.
Oliy ta’lim	<ul style="list-style-type: none"> - Oliy ta’lim muassasasida amalga oshiriladigan, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi ikki bosqichli (bakalavriat va magistratura) uzliksiz ta’limning mustaqil turi.
Oraliq nazorat	<ul style="list-style-type: none"> - Semestr davomida fan dasturining tegishli bo‘limi tugagandan keyin talabaning bilim va amaliy ko‘nikmalarini baholovchi nazorat turi.
Pedagogik amaliyot	<ul style="list-style-type: none"> - Ta’lim muassasalarida pedagogik mahoratni oshirish uchun tashkil etiladigan amaliyot turi.
Semestr	<ul style="list-style-type: none"> - qarang O‘quv semestri
Sillabus	<ul style="list-style-type: none"> - Qarang O‘quv dasturi
Ta’lim darajasi	<ul style="list-style-type: none"> - Ikki bosqich (bakalavriat va magistratura)ga ega, yuqori malakali mutaxassislik (bakalavr yoki magistr) darajasi.
Ta’lim natijalari	<ul style="list-style-type: none"> - Qarang O‘qish natijalari
Ta’lim yo‘nalishi	<ul style="list-style-type: none"> - Bakalavr darajasini beruvchi, o‘quv reja va fan dasturlari asosida kasb faoliyatini bajarishni ta’minlovchi bazaviy va fundamental bilimlar, uquvlar va ko‘nikmalar kompleksi. Ta’lim yo‘nalishi 6-ta’lim darajasi bo‘lib, u 8 ta raqamli kod va nomga ega, masalan, 60111400 O‘zbek tili va adabiyoti.
Talabaning shaxsiy ta’lim trayektoriyasi	<ul style="list-style-type: none"> - Talaba tomonidan tanlangan yo‘nalish, ya’ni talaba o‘quv rejada berilgan majburiy fanlar va o‘zi tanlangan tanlov fanlarni o‘qib-o‘rganish orqali ma’lum majburiy va qo‘srimcha kompetensiyalarga erishish yo‘li.
Tanishuv amaliyoti	<ul style="list-style-type: none"> - Tegishli tashkilot, muassasa, korxona faoliyati yoki biror jarayon bilan tanishtirish maqsadida o‘tkaziladigan amaliyot turi.
Tanlov fan	<ul style="list-style-type: none"> - Talabaga biror mutaxassislik fani bo‘yicha bilimini yanada chuqurroq va mustahkamroq qilish uchun ko‘nikma va malakaga ega bo‘lish yoki boshqa qo‘srimcha malakaga ega bo‘lish uchun taklif etilgan fan.
Transkript	<ul style="list-style-type: none"> - O‘zlashtirilgan fanlar, kreditlar, baholar, semestrlarning harflar va raqamlar bilan ko‘rsatilgan elektron yoki qog‘oz shakli, hujjat.
Yakuniy davlat attestatsiyasi (YDA)	<ul style="list-style-type: none"> - 4 yillik bakalavriat yoki 2 yillik magistratura o‘qishi yakunida o‘quv rejadaga fanlarni o‘zlashtirish darjasini aniqlash uchun o‘tkaziladigan imtihon turi. Yakuniy davlat attestatsiyasi bakalavriatda mutaxassislik fanlari bo‘yicha imtihon yoki bitiruv malakaviy ishini himoya qilish, magistraturada magistrlik dissertatsiyasini himoya qilishni nazarda tutadi.
Yakuniy nazorat	<ul style="list-style-type: none"> - Semestr yakunida talabaning nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini o‘zlashtirish darjasini baholovchi nazorat turi.

I. UNIVERSITET HAQIDA QISQA MA'LUMOT

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti (keyingi o‘rinlarda universitet deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-sonli farmoni asosida tashkil etilgan.

2023/2024-o‘quv yilida universitetda 5 ta fakultet, 3 ta markaz (Masofaviy ta’lim markazi, Axborot-resurs markazi, Raqamli ta’lim texnologiyalari markazi) va yana boshqa bo‘linmalar talabalarga xizmat ko‘rsatadi. Universitet haqidagi to‘liq ma’lumot bilan quyidagi havolalar orqali tanishish mumkin:

1. Universitet haqida umumiy ma’lumot:

http://tsuull.uz/sites/default/files/tsuull_umumiylast.pdf

<http://tsuull.uz/uz/content/katalog>

2. Universitetning rasmiy veb-sayti: <http://tsuull.uz/>

3. Universitet rahbariyati: <http://tsuull.uz/uz/content/rektorat>

4. Fakultetlar: <http://tsuull.uz/uz/fakultets>; <http://tsuull.uz/uz/content/katalog>

5. Kafedralar: <http://tsuull.uz/uz/departments>

6. Bo‘limlar: <http://tsuull.uz/uz/otdeli>

7. Professor-o‘qituvchilar: <http://tsuull.uz/uz/preodavateli>

8. Axborot-resurs markazi: <http://tsuull.uz/uz/content/axborot-resurs-markazi>

1.1. Dekanat

Dekanat fakultet, undagi barcha kafedralar, professor-o‘qituvchilar va talabalarni boshqaradigan ma’muriy-ilmiy bo‘linma. Fakultetga dekan boshchilik qiladi. Dekanning o‘quv, ilmiy va yoshlar ishlari bo‘yicha o‘rinbosarlari bor.

Dekanatning asosiy vazifasi:

Talabalar bilan ishslash, jumladan talabalarning o‘quv, ilmiy-tadqiqot, ma’naviy-ma’rifiy va tashkiliy ishlar bilan bog‘liq barcha muammolariga yechim topish va boshqalar.

Talabalar har qanday masala, xususan o‘quv, ilmiy va kundalik maishiy, talabalar turar joyiga joylashish, o‘zaro munosabatlar va boshqa masalalar bo‘yicha fakultet dekani yoki tegishli dekan o‘rinbosarlariga murojaat qilishi mumkin.

Dekanlar faoliyati bilan quyidagi havola orqali tanishish mumkin:

O‘zbek filologiyasi fakulteti dekani:

<https://tsuull.uz/uz/content/abdushukurov-baxtiyor-boronovich>

Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti dekani:

<https://tsuull.uz/uz/content/tarjima-nazariyasi-va-amaliyoti-fakulteti>

Ona tili va adabiyot ta’limi fakulteti:

<https://tsuull.uz/uz/content/abdullahayeva-marguba-dusmiratovna>

O‘zbek tili ta’limi fakulteti:

<https://tsuull.uz/uz/content/muhamedova-saodat-xudoyberdiyevna>

1.2. Kafedra

Kafedra bir yoki bir nechta o‘zaro yaqin fanlar bo‘yicha ish olib boradigan bo‘linmadir.

Kafedra mudir tomonidan boshqariladi, unda fanlar bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini olib boradigan va ma’lum bir ilmiy-tadqiqot bilan shug‘ullanadigan professor-o‘qituvchilar faoliyat yuritadi.

Talabalar ma’lum fanlar bo‘yicha muammolar yuzaga kelganda dars bergan yoki berayotgan professor-o‘qituvchiga yoki kafedra mudiriga murojaat qilishi lozim.

Kafedralar va kafedra mudirlari faoliyati bilan quyidagi havola orqali tanishish mumkin: <http://tsuull.uz/uz/departments>

II. UNIVERSITETDA TA'LIM DARAJALARI

Universitet 2 ta (bakalavr va magistr) ta'lism darajasini beradigan ta'limg yo'naliishlari va mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlaydi. 2023/2024-o'quv yilida universitetda quyidagi ta'limg yo'naliishlari va magistratura mutaxassisliklari bor:

BAKALAVRIAT

t/r	Ta'limg yo'naliishi		Ta'limg shakli	O'qish muddati	Ta'limg darajasi	Kvalifikatsiya
	kodi	nomi				
1.	60111400	O'zbek tili va adabiyoti	kunduzgi	4 yil	bakalavr	Pedagog. O'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisi
			kechki	4.5-5 yil		
			sirtqi	5 yil		
2.	60111600	O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili	kunduzgi	4 yil	bakalavr	Pedagog. O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili o'qituvchisi
3.	60230100	Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)	kunduzgi	4 yil	bakalavr	Filolog. O'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi
4.	60230900	Folklorshunoslik shevashunoslik	kunduzgi	4 yil	bakalavr	Filolog, folklorshunos va shevashunos, ona tili va adabiyot o'qituvchisi
5.	60230300	Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (o'zbek tili)				
6.	60230700	Amaliy filologiya	kunduzgi	4 yil	bakalavr	Filolog-amaliyotchi
7.	60230200	Tarjima nazariyasi va amaliyoti (ingliz, nemis, fransuz, rus tillari)	kunduzgi	4 yil	bakalavr	Tarjimon
8.	60230800	Kompyuter lingvistikasi	kunduzgi	4 yil	bakalavr	Raqamli tilshunos
9.	60230600	Noshirlik ishi	kunduzgi	4 yil	bakalavr	Noshir, noshirlik menejeri
10.	60311000	Sotsiologiya	kunduzgi	4 yil	bakalavr	Sotsiolog, tahlilchi
11.	60310900	Psixologiya: amaliy psixologiya	kunduzgi	4 yil	bakalavr	Psixolog, pedagog

MAGISTRATURA

t/r	Mutaxassislik		Ta'limg shakli	O'qish muddati	Ta'limg darajasi	Kvalifikatsiyasi
	kodi	nomi				
1.	70111401	O'zbek tili va adabiyoti	kunduzgi	2 yil	magistr	O'qituvchi-taqiqotchi
2.	70111601	O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili	kunduzgi	2 yil	magistr	O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili o'qituvchisi, taqiqotchi-pedagog

3.	70230104	Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti)	kunduzgi	2 yil	magistr	Filolog, adabiyotshunos (tadqiqotchi)
4.	70230104	Adabiyotshunoslik (adabiyot nazariyasi)	kunduzgi	2 yil	magistr	Filolog-adabiyotshunos (tadqiqotchi)
5.	70230104	Adabiyotshunoslik (jahon adabiyot)	kunduzgi	2 yil	magistr	Adabiyotshunos (tadqiqotchi)
6.	70230103	Folklorshunoslik va dialektologiya	kunduzgi	2 yil	magistr	Filolog, folklorshunos-dialektolog (tadqiqotchi)
7.	70230201	Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (Ingliz tili)	kunduzgi	2 yil	magistr	Tilshunos-tarjimon, tadqiqotchi-pedagog
8.	70230203	Badiiy tarjima (ingliz tili)	kunduzgi	2 yil	magistr	Tarjimon (tadqiqotchi)
9.	70230204	Ilmiy-texnik tarjima (ingliz tili)	kunduzgi	2 yil	magistr	Tarjimon (tadqiqotchi)
10.	70230301	Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (o‘zbek tili)	kunduzgi	2 yil	magistr	Filolog, matnshunos (tadqiqotchi)
11.	70230801	Kompyuter lingvistikasi	kunduzgi	2 yil	magistr	Raqamli tilshunos (tadqiqotchi)

2.1. Talabalikka qabul

Universitetga o‘qishga qabul qilish 2 xil shaklda amalga oshiriladi:

1. Davlat granti
2. To‘lov-shartnoma

2023/2024-o‘quv yilida Bilim va malakalarni baholash agentligi (avvalgi Davlat test markazi – DTM) tomonidan o‘tkazilgan test sinovi natijalariga ko‘ra davlat tomonidan tasdiqlangan har bir ta’lim yo‘nalishi yoki magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha belgilangan qabul kvotalariga asosan **davlat grantiga** qabul qilinganlar 2023-yil avgust oyining oxirida universitet rektorining buyrug‘i bilan talabalikka qabul qilinadi, **to‘lov-shartnoma** asosidagilar to‘lovnii amalga oshirgunga qadar rektoring farmoyishi bilan o‘quv mashg‘ulotlariga qatnashishga ruxsat etiladi. **To‘lov-shartnoma** asosida talabalikka tavsiya etilganlar bir akademik yil uchun bir nafar talabani o‘qitish qiymati (umumiy shartnoma to‘lovi)ning ma’lum bir qismini to‘lagach (qo‘sishimcha axborot uchun Hisob-kitob bo‘limiga murojaat qilish mumkin) talabalikka qabul qilish bo‘yicha rektor buyrug‘i qabul qilinadi. To‘lov-shartnoma narxlari bo‘yicha quyidagi havola orqali tanishish mumkin:

https://tsuull.uz/sites/default/files/2023_2024_ukuv_yili_kontrakt_mikdorlar_i.pdf

To‘lov-shatnoma bo‘yicha kirish baliga 0.1-4.06 ballgacha yetmagan talabgorlar uchun tabaqlashtirilgan to‘lov miqdori:

<http://tsuull.uz/uz/content/tolov-kontrakt-narxlari>

56.7 balldan kam bo‘lmagan talabgorlar uchun tabaqlashtirilgan (superkontrakt) miqdori:

https://tsuull.uz/sites/default/files/2023_2024_tabakalashtirilgan_kontrakt_mikdorlari.pdf

Izoh: O‘zbekiston Respublikasi davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha davlat komissiyasi tomonidan to‘lov-shartnoma asosida talabalikka tavsiya etilganlar shartnomalarni quyidagi havola orqali rasmiylashtirishi mumkin:

<https://kontrakt.edu.uz/> - ro‘yxatdan o‘tish talab etiladi.

Tegishli ta’lim yo‘nalishiga qabul qilingan talabalar guruhlarga ajratiladi. Guruhlarga ajratish dekanat tomonidan amalga oshiriladi. Bir akademik guruh 25-30 nafargacha talabadan iborat bo‘lishi mumkin.

III. O'QUV JARAYONI

3.1. Dars jadvali

Dars jadvali guruh va kurslar kesimida dekanat (o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinnbosari) tomonidan tuziladi. Dars jadval elektron shaklda HEMIS tizimida shakllantiriladi. Dars jadvalda hafta kunlar, darslar vaqt, professor-o'qituvchining familiya, ismi va auditoriya raqami ko'rsatiladi.

3.2. HEMIS

HEMIS (ingliz tilidagi to'liq nomi - Higher Education Management Information System, o'zbek tilida - Oliy ta'limni boshqarish axborot tizimi) elektronlashtirilgan o'quv jarayoni bo'lib, unda dars jadvali, fanga oid resurslar (o'quv adabiyotlari, video-audio materiallar va boshqalar), topshiriqlar, talabaning darslarga qatnashish davomati, fanlar bo'yicha oraliq va yakuniy nazorat uchun baholar yoki ballar ko'rinish turadi. Bundan tashqari, talaba tanlov fanlarni ushbu tizim orqali tanlashi mumkin bo'ladi.

HEMIS tizimiga kirish uchun talaba login va kalit (parol)ni dekanatdan oladi.

HEMIS tizimi haqida to'liq ma'lumotni quyidagi havola orqali olish mumkin:

HEMIS haqida umumiy ma'lumot:

<https://www.youtube.com/watch?v=2CWjW9mWGUC>

HEMIS funksiyalari haqida: <https://www.youtube.com/watch?v=8QKXWS1a-c>

3.3. Kredit-modul tizimi

Universitetda o'quv jarayoni kredit-modul tizimi asosida tashkil etilgan. Kredit-modul tizimi haqidagi batafsil nizom bilan quyidagi havola orqali tanishish mumkin:

<https://tsuull.uz/uz/content/kredit-talim-tizimi-nizomi>

3.4. O'quv (akademik) yili. Talaba o'zi tanlagan ta'lim yo'nalishida jami 8 semestrdan iborat 4 o'quv yili tahsil oladi. Har bir o'quv yilida 2 ta semestr bor.

3.5. Semestr. Bir o'quv yili 2 qismdan iborat, mana shu qismlarning har biri semestr deb ataladi. Har bir semestrda talaba ma'lum fanlarni o'zlashtiradi va semestr yakunida yakuniy nazoratlarni topshirib, keyingi semestrga o'tadi.

3.6. Fan. Fan - talaba tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan ilmiy, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy sohalardan saralab olingan bilim va ko'nikmalar tizimi. Fanning ikki turi bo'ladi:

majburiy fan – bu talabaning asosiy mutaxassisligi bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malaka beradigan, o‘qitilishi shart bo‘lgan, universitet mutaxassislari tomonidan o‘quv rejaga kiritilgan fan.

tanlov fan – talabaga biror mutaxassislik fani bo‘yicha bilimini yanada chuqurroq va mustahkamroq qilish uchun ko‘nikma va malakaga ega bo‘lish yoki boshqa (masalan, filologiya yoki pedagogika sohasida ta’lim oluvchilar uchun “Dasturlash”, “Web-sayt yaratish” yoki “Boshqaruv” kabi fanlarni o‘rganib) qo‘srimcha malakaga ega bo‘lish uchun universitet mutaxassislari tomonidan taklif etiladigan va talaba tomonidan tanlanadigan fan. Tanlov fanlar HEMIS tizimida talaba profilida ko‘rinadi. Shuningdek, quyidagi havola orqali ham tanlov fanlarni tanlash mumkin:

<https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSe4Qe2IJAPopQTTpkiX0r6zHo5AWnFwt0dLQa87Uq8Fk3BGAQ/viewform>

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 9-iyundagi 259-sonli buyrug‘iga asosan 2023/2024-o‘quv yilidan e’tiboran 3-semestrda boshlab tanlov fanlar qo‘yildi (1-kursda 1- va 2-semestrda tanlov fanlar qo‘yilmadi).

3.7. Talaba o‘quv yuklamasi. Davlat ta’lim standartiga ko‘ra talabaning 1 haftadagi o‘quv yuklamasi 22-32 soat oralig‘ida bo‘lishi belgilangan. Universitetda 2023/2024-o‘quv yili uchun tasdiqlangan o‘quv rejalarga ko‘ra 1 haftadagi talabaning o‘quv yuklamasi o‘rtacha 24-28 soatni tashkil etadi. **Bu nimani anglatadi?** Talaba kontakt soatlar, ya’ni auditoriyada (ma’ruza, seminar, amaliy va laboratoriya darslarida) o‘tirib o‘rganishi lozim bo‘lgan soatlar. Bundan tashqari, talaba mustaqil ta’lim soatlarini ham bajarishi shart. Odatda bular o‘quv rejada 40/60 yoki 50/50 nisbatda bo‘ladi, ya’ni jami soatlarning 40 (50) %ni auditoriyada, 60 (50) %ni mustaqil ravishda bajarish shart bo‘ladi.

3.8. Kredit. Kredit – ta’limning o‘lchov birligi. Kreditlar shunchaki raqamlar emas. Har bir kredit talaba bajarishi kerak bo‘lgan ma’lum miqdordagi o‘qish yuklamasi va bu orqali o‘qish natijasiga erishish lozim bo‘ladi. ECTS kredit-modul tizimi 2 ta zarur element: 1) o‘qish yuklamalari va 2) o‘qish natijalaridan iborat. Talaba shularni bajarsa muayyan fan bo‘yicha belgilangan kreditni to‘play oladi.

Har bir semestrda talaba 30 kredit to‘plashi zarur. 1 kredit 30 soatga teng. Bir semestrda talaba 900 soat (30 kredit * 30 soat = 900) o‘qish bilan band bo‘ladi:

1-o‘quv yili (1-kurs)		2-o‘quv yili (2-kurs)		3-o‘quv yili (3-kurs)		4-o‘quv yili (4-kurs)	
1- semestr	2- semestr	3- semestr	4- semestr	5- semestr	6- semestr	7- semestr	8- semestr
30 kredit 900 soat	30 kredit 900 soat	30 kredit 900 soat	30 kredit 900 soat	30 kredit 900 soat	30 kredit 900 soat	30 kredit 900 soat	30 kredit 900 soat
4 yilda jami kreditlar soni 240							
4 yilda jami soatlar hajmi 7200							

1 semestrda fanlar soni 6 tagacha bo‘lishi mumkin, shundan kelib chiqib har bir fanga 4, 5 yoki 6 kredit beriladi, natijada talaba 1 semestrda 30 kredit to‘plashi zarur bo‘ladi.

3.9. Kreditlar qanday to‘planadi? Deylik 1-semestrda dars jadvalida 6 ta fan bor. O‘quv rejada 1-fanga **4**, 2-fanga **6**, 3-fanga **5**, 4-fanga **5**, 5-fanga **4**, 6-fanga **6 kredit** belgilangan. Shulardan bittasi “Dinshunoslik” fani. Semestr yakunida bu fandan 4 kredit olish uchun talaba semestr davomida ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarida ishtirok etishi (sababsiz dars qoldirmasligi), oraliq va yakuniy nazoratlar, shuningdek, mustaqil ta’lim topshiriqlarini ham ijobjiy baholarga topshirishi kerak bo‘ladi. Bu bilan talaba o‘qish yuklamasini bajarganligi hamda o‘qish natijalari (“Dinshunoslik” fani bo‘yicha qo‘lga kiritgan bilimlarini amalda qo‘llay olishi)ga erishganligini anglatadi va unga shu fan bo‘yicha 4 kredit beriladi.

Qolgan fanlar bo‘yicha ham shu tartibda kreditlar to‘planadi.

Agar talaba shu talablarni bajarmasa kredit to‘play olmaydi va qarzdor hisoblanadi.

3.10. Talaba qachon qarzdor deb hisoblanadi? Quyidagi holatlarda talaba qarzdor deb hisoblanadi:

- Bir fanga ajratilgan auditoriya soatining **25** va **undan yuqori foizi** miqdorida **sababsiz dars qoldirganda** yakuniy nazoratga kiritilmaydi va akademik qarzdor hisoblanadi (**31.12.2020-yildagi VMQ 824, 41-band**). Masalan, bir semestrda jami auditoriya soati 100 soat bo‘lgan fan bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari (ma’ruza, seminar, amaliy yoki laboratoriya)ga sababsiz qoldirilgan soatlar 25 va undan yuqori foiz (100 soat = 100 %; 25 % = 25 soat) bo‘lsa, talabaga yakuniy nazoratni topshirishga ruxsat etilmaydi va u qarzdor bo‘ladi.
- Oraliq nazorat turini **sababsiz topshirmagan** yoki shu nazorat turi bo‘yicha **2 bahoga** baholangan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi va qarzdor hisoblanadi (**09.08.2018-yil OO‘MTV buyrug‘i 19-2018, 22-band**).
- Talaba **sababsiz** malakaviy amaliyotga **qatnashmasa** yoki malakaviy amaliyot bo‘yicha **2 bahoga** baholansa, u akademik qarzdor hisoblanadi (**09.08.2018-yil OO‘MTV buyrug‘i 19-2018, 28-band**).

3.11. Qarzdorlik qanday bartaraf etiladi? Qarzdorlik quyidagicha bartaraf etiladi:

3.11.1. Akademik qarzdor talaba qarzdor fanlarga ajratilgan kreditlar miqdoriga mos ravishda bazaviy to‘lov-shartnomaga miqdoridan kelib chiqib to‘lovnini amalga oshiradi (batatsil ma’lumotni quyidagi havola orqali bilish mumkin https://tsuull.uz/sites/default/files/2023_2024_ukuv_yili_1_kreditga_mos_tulov.pdf).

3.11.2. Belgilangan muddatlarda qayta tashkil etilgan mashg‘ulotlarda qatnashadi.

3.11.3. Belgilangan tartibda oraliq va/yoki yakuniy nazoratlarni muvaffaqiyatli topshiradi.

3.12. Talaba qachon kursdan kursga qoldiriladi? Quyidagi holatlarda talaba kursdan kursga qoldiriladi:

- **GPA o‘tish balini** to‘play olmaganda. 2023/2024-o‘quv yilida universitet Kengashi qaroriga asosan **GPA o‘tish bali 2.5** ball belgilangan (ToshdO‘TAU Kengashi 1-qaror, 28.08.2023).
- 4 ta va undan ko‘p fanlardan qarzdor bo‘lgan talabaga qayta topshirishga ruxsat berilmaydi va u kursdan kursga qoldiriladi (**09.08.2018-yil OO‘MTV buyrug‘i 19-2018, 25-band 3-xatboshi**).
- Belgilangan muddatlarda **oraliq yoki yakuniy nazorat** turlarini **2-marta ham qayta topshira olmagan** talaba kursdan kursga qoldiriladi (**09.08.2018-yil OO‘MTV buyrug‘i 19-2018, 27-band**).
- Belgilangan muddatda **malakaviy amaliyotni qayta topshira olmagan** talaba kursdan kursga qoldiriladi (**09.08.2018-yil OO‘MTV buyrug‘i 19-2018, 28-band**).

3.13. GPA nima? GPA ingliz tilida “Grade Point Average”, o‘zbekchada talaba o‘zlashtirgan ballari o‘rtacha qiymatidir. Talaba 1 o‘quv yilini tugatgach uni 2-o‘quv yiliga o‘tkazish uchun GPA bali muhim o‘rin tutadi. Universitetda GPA o‘tish bali 2.5 ball etib belgilangan. Shunga ko‘ra talabaning 1 o‘quv yilida har bir fandan o‘zlashtirgan baholari kreditlarga ko‘paytirilib, bir-biriga qo‘shiladi va umumiy kreditlar soniga bo‘lish orqali GPA bali hisoblanadi. Bu quyidagi formula orqali amalga oshiriladi:

$$GPA = \frac{K_1 * U_1 + K_2 * U_2 + K_3 * U_3 + K_n * U_n}{K_1 + K_2 + K_3 + K_n}$$

Bunda **K** - har bir fanga ajratilgan kredit miqdori, **U** – har bir fan bo‘yicha to‘plangan baho yoki ball.

Misol uchun talaba 1-semestrda 6 ta fan, 2-semestrda 6 ta fan o‘qib 1-kursni tugatdi, uni 2-kursga o‘tkazish uchun GPA bali quyidagicha hisoblanadi:

1-semestr				2-semestr			
Fan	Olgan baho	Shu fan uchun ajratilgan kredit	Hisoblash yo'li	Fan	Olgan baho	Shu fan uchun ajratilgan kredit	Hisoblash yo'li
1-fan	4	5	$4*5=20$	1-fan	5	4	$5*4=20$
2-fan	3	6	$3*6=18$	2-fan	5	5	$5*5=25$
3-fan	5	5	$5*5=25$	3-fan	4	5	$4*5=20$
4-fan	5	4	$5*4=20$	4-fan	3	6	$3*6=18$
5-fan	4	5	$4*5=20$	5-fan	3	4	$3*4=12$
6-fan	3	5	$3*5=15$	6-fan	3	6	$3*6=18$
Jami		30	118	Jami		30	113
$(118+113) \ 231 / 60 \ (30+30) = 3.85$							

Demak talabaning GPA bali 3.85, o'tish bali (2.5)dan yuqori bo'lganligi uchun keyingi kursga o'tkaziladi.

Agar talaba 1 semestr yoki 1 o'quv yili davomi bir yoki bir nechta fanlardan qarzdor bo'lsayu, ammo GPA bali 2.5 va undan yuqori bo'lsa, bu talaba kursdan kursga o'tkaziladi, biroq qarzdor bo'lgan fanlarini topshirishi kerak bo'ladi.

3.14. Talabalarning bilimini baholash. Talabalarning bilimi Oliy va o'rta maxsus ta'lim (hozirgi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar) vazirligining 2018-yil 9-avgustdagি 19-2018-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Talabalar bilimini nazorat qilish va baholash to'g'risidagi nizom"ga asosan baholanadi.

Baholash mezonlari professor-o'qituvchilar tomonidan tuzilgan o'quv dastur va sillabuslarda bat afsil beriladi. Birinchi darsda har bir fanning o'qituvchisi talabalarni o'zi olib boradigan fandan baholash tartibini tushuntirib beradi.

Yuqorida eslatib o'tilgan nizom talablariga ko'ra talabalarning bilimini baholash quyidagi nazoratlar orqali amalga oshiriladi:

- **joriy nazorat** – o'quv mashg'ulotlari (seminar, amaliy va laboratoriya) davomida talabaning faolligi (auditoriyada topshiriqlarni bajarganligi, og'zaki yoki yozma savollarga javob berganligi, shuningdek, o'qituvchi tomonidan berilgan mustaqil ta'lim (ish)ni (yozma yoki og'zaki yoxud boshqa shaklda) bajarganligi) baholanadi (**09.08.2018-yil OO'MTV buyrug'i 19-2018, 10-band**);
- **oraliq nazorat** – semestr davomida o'quv dastur (sillabus)ning tegishli bo'limi tugagandan so'ng talabaning bilim va ko'nikmalarini baholash maqsadida o'quv mashg'ulotlari davomidam o'tkaziladi. Oraliq nazorat o'quv jarayoni grafigi (https://tsuull.uz/sites/default/files/toshdota_oquv_jarayonining_2022_2023_oquv_yili_jadvali_2.pdf)ga asosan belgilangan muddatda turli (og'zaki, yozma yoki boshqa) shaklda o'tkaziladi;

- **yakuniy nazorat** – semestr yakunida talabaning bilim va ko‘nikmalarini o‘zlashtirish darajasini baholash uchun o‘tkaziladi. Yakuniy nazorat 15 haftalik o‘quv davri tugagandan so‘ng belgilangan muddatda turli (og‘zaki, yozma yoki boshqa) shaklda tashkil etiladi.

Eslatma:

“Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi Nizom”ga asosan talabalar Oraliq nazoratini 2 martagacha qayta topshirishi mumkin. Bunda 1-marta qayta topshirish kafedra o‘qituvchisi, 2-marta qayta topshirish esa fakultet dekani tomonidan tuzilgan komissiya qabul qiladi.

Yakuniy nazoratga sababsiz kelmagan yoki shu nazorat turidan 2 baho olgan talaba qayta yakuniy nazorat topshirmaydi, balki qarzdor hisoblanib, qarzdorlik 3.11-bandda ko‘rsatilgan tartibda bartaraf etiladi.

3.15. Mustaqil ta’lim. Mustaqil ish. Mustaqil ta’lim talaba tomonidan darsdan tashqari vaqtida fanlarni o‘zlashtirishdan iborat. Mustaqil ta’lim topshirirq va vazifalari har bir fanning o‘quv dasturi (sillabus)da belgilab berilgan bo‘ladi. O‘qituvchi 1-darsda talabalarga mustaqil ta’limni qay tatribda amalga oshirish mazmun-mohiyatini tushuntirib berishi lozim. Mustaqil ta’limni tashkil etish bo‘yicha universitetning 2022-yil 1-iyundagi 01-122-buyrug‘i bilan tartibga solinadi.

3.16. Stipendiya. Stipendiya bu pul ko‘rinishidagi ta’minot. Stipendiya quyidagilarga to‘lanadi:

1. Davlat granti asosida o‘qishga qabul qilingan talabalarga davlat tomonidan ajratiladigan mablag‘lar hisobidan.

2. Stipendiyali to‘lov-shartnomaga pulini to‘lagan talabalarga o‘sha mablag‘ hisobidan.

Stipendiya talabalarga o‘quv semestri yakuni bo‘yicha fanlardan o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari, alohida qobiliyat va iqtidorga egaligi, jamoat ishlarida faolligi, ijtimoiy himoyaga muhtojligi kabi mezonlardan kelib chiqib stipendiya komissiyasi xulosasiga ko‘ra tayinlanadi.

Stipendiyani tayinlash va to‘lash tartibi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-yanvardagi 59-sonli qaroriga asosan amalga oshiriladi.

3.17. Ta’tillar. Talabalar uchun ta’tillarning 2 turi mavjud:

1. Qishki ta’til.
2. Yozgi ta’til.

Qishki ta’til Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktabrdagi 560-sonli qaroriga asosan 2 haftalik bo‘ladi, ya’ni har yili dekabrning oxirgi 10 kunligi va yanvar oyining birinchi 10 kunligi qishki ta’til hisoblanadi.

Yozgi ta’til o‘quv yili uchun tuzilgan o‘quv rejadagi o‘quv yuklama bajarilgandan so‘ng, odatda yoz oylari (iyun, iyul va avgust)da bo‘ladi.

3.18. Malakaviy amaliyotlar. Malakaviy amaliyotlar ta’lim yo‘nalishiga qarab universitet tomonidan o‘quv rejada belgilanadi. Amaliyotlarning quyidagi turlari bor:

1. Tanishuv amaliyoti.
2. O‘quv amaliyoti yoki o‘quv-tanishuv amaliyoti.
3. Pedagogik amaliyot.
4. Ishlab chiqarish amaliyoti.

Ta’lim yo‘nalishlarining xususiyatiga qarab yuqoridagi amaliyotlar turi belgilanadi.

Amaliyotlar kafedra tomonidan belgilangan o‘qituvchi tomonidan va amaliyot joy (obyekt)larida belgilangan mas’ul tomonidan rahbarlik amalga oshiriladi.

Pedagogik ta’lim yo‘nalishlarida 4+2 tizimi mavjud, ya’ni 4 kun universitetda o‘qishda va 2 kun maktablarda amaliyot o‘tashga yuboriladi.

3.19. Talabalar o‘qishini ko‘chirish va qayta tiklash. Talabalarning o‘qishini ko‘chirish va qayta tiklash faqat 1-kursni tugatganda so‘ng har yili 15-iyuldan 5-avgustgacha <https://transfer.edu.uz/uz#> orqali amalga oshiriladi.

3.20. Talabalarga akademik ta’til berish. Akademik ta’til talabaga ma’lum bir sabab tufayli muayyan muddatga beriladigan qisqa ta’tildir. Akademik ta’til bo‘yicha nizom bilan quyidagi havola orqali tanishish mumkin:

<https://tsuull.uz/uz/content/akademik-tatil>

3.21. Akademik mobillik. Akademik mobillik ma’lum bir ta’lim yo‘nalishi doirasida ma’lum bir vaqt (1 semestr yoki 1 o‘quv yili) uchun boshqa oliv ta’lim muassasasida o‘qish hisoblanadi. Akademik mobililik respublika ichida va xorijiy davlatlar oliv ta’lim muassasalarida amalga oshirilishi mumkin. Akademik mobillik masalasi bo‘yicha to‘liq ma’lumotni fakultet dekanati yoki o‘quv-uslubiy bo‘limdan olish mumkin.

3.22. Akademik halollik. Akademik halollik deganda o‘z kuchi, aqli, qobiliyati va idroki orqali ta’lim olish tushuniladi. Universitetda ta’lim olishda aldov yo‘li bilan, ko‘chirmachilik, asossiz yoki yolg‘on yoxud isbotlanmagan ma’lumotlar, faktlarni qalbakilashtirish orqali baho olish qattiq qoralanadi, hattoki tegishli jazo choralarini (hayfsan berish, talabalar safidan chetlatish, jinoiy javobgarlik) ko‘rishga sabab bo‘ladi. Shu sababli quyidagilarni aslo qilmaslik lozim:

- o‘quv mashg‘ulotlari, nazoratlar (oraliq, yakuniy), ya’ni turli shakldagi imtihonlarda shpargalka, elektron lug‘at, internet manba (ruxsat etilganlaridan tashqari), ko‘chirish (kitobdan, boshqa shaxsdan) yoki oldindan kelishuv asosida ko‘chirish yoki tayyorlab berish aldov orqali baho olish hisoblanadi.

- biror bir ish (ilmiy, o‘quv)ni tegishli iqtibos keltirmasdan, boshqa shaxsning asarlaridan (so‘z, tasvir, boshqa materiallarni) o‘z so‘zi sifatida foydalanish,

shuningdek, veb-sayt yoki internet manbadan nusxa ko‘chirish, sotib olish yoki yuklab olish (to‘liq yoki qisman) plagiat hisoblanadi. Bundan tashqari, o‘xshash bo‘lgan fanlardan biri uchun tayyorlangan ishni ikkinchisi uchun taqdim etish ham plagiarism hisoblanadi.